

---

## **“AYOL-MEHR, SADOQAT, TARAQQIYOT TIMSOLI” SHIORI OSTIDA MADANIY-MA’RIFIY TADBIR O‘TKAZILDI**

Toshloq tumanidagi 2-sonli umumta’lim maktabida tuman hokim o‘rinbosari, oila-xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i U.Marasulova, tuman adliya bo‘limi boshlig‘i Ya.Zulfiqorov hamda tuman FXDYO bo‘limi mudirasi N.Rizayeva, IIB xotin-qizlar bo‘yicha ishlash inspektori N.Alijonovalar hamda tumandagi MFY faollari ishtirokida “Ayol-mehr, sadoqat, taraqqiyot timsoli” shiori ostida madaniy-ma’rifiy tadbir bo‘lib o‘tdi.

Dastlab, tadbirni tuman hokimi oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i U.Marasulova ochdi va so‘zni tuman IIB xotin-qizlar bo‘yicha inspektori N.Alijonovaga berdi. “Aldanib qolmang”, “Oila muqaddas dargoh” mavzularda N.Alijonova hududimizdagi oilaviy ajrimlarni oldini olish yuzasidan fikr-mulohazalarini bildirdi.

Taklif qilingan tumandagi MFYlardagi “Oqila ayollar” harakati yetakchilari, maktab o‘quvchi va o‘qituvchilari, maktabgacha ta’lim muassasalarining tarbiyachi xodimlari hamda tashkilot va korxonalarining ayol xodimalari tashkil etilgan ko‘ngilochar dasturlardan bahramand bo‘ldilar. Taniqli san’atkorlarning kuy-qo‘shiqlari barcha ishtirokchilarga ko‘tarinki kayfiyat bag‘ishladi.

2023-06-27 09:48:33